



The effectiveness of the use of information technology at secondary school

Sayfulla ALIBEKOV¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2023
Received in revised form
15 April 2023
Accepted 25 April 2023
Available online
15 May 2023

Keywords:

education,
information technologies,
modern technologies,
computer games,
communication,
independent movement,
speech culture,
the internet,
electronic information.

ABSTRACT

This article discusses the increase in interest and adaptation of students to using information technology in the classroom.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss3/S-pp96-99>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ta'lim,
axborot texnologiya,
zamonaviy texnologiya,
komputerli o'yin,
kommunikatsiya,
mustaqil harakat,
nutq madaniyati,
internet,
elektron ma'lumot.

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirish va moslashuvchanlikni oshirish bo'yicha yondashuvlar bayon qilingan.

¹ PhD in Physics and Mathematics, Associate Professor, Department of Information Technology, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Эффективность использования информационных технологий в общеобразовательной школе

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

образование,
информационные
технологии,
современные технологии,
компьютерные игры,
связь,
самостоятельное
движение,
речевая культура,
интернет,
электронная информация.

В данной статье рассматривается повышение интереса и адаптации учащихся при использования информационных технологий на занятиях.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan bir davrda umumiy o'rta ta'limning biron-bir o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysi qismini axborot kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)dan foydalanib o'tsa qanday samara berishini yoki AKTni qo'llashning pedagogik tamoyillari, uning psixologik xususiyatlari, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillari, shuningdek, yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimida, xususan, o'quv jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish, o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish, ayniqsa, o'quv mashg'ulotlarini o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim tizimining mazmuni va sifati bizning jamiyatimizning dolzarb masalalari va ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib,uni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish usullari va tadbirlari izlanmoqda, shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonida yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashtirilmoqda. Ayni paytda davlatimiz rahbari tomonidan respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishni ta'minlash, ta'limga yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o'quv muassasalaridagi axborot-resurs markazlari faoliyatini zamonaviy talab va mezonlar asosida tashkil etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim berishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish kutilayotgan natijaga erishish uchun asosiy masala hisoblanib, ko'plab munozara va turli xil fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishiga qaramay, umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda va ularni har tomonlama yetuk inson bo'lib rivojlanishida, dars jarayonida o'quvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o'qish, rasmlarni ko'rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish, komputerli o'yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish o'zining ijobiy samarasini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishi uchun mo'ljallangan barcha komputerli o'yin dasturlarining hammasi ham ta'lim jarayonida o'z samarasini beravermaydi [1].

Shuning uchun ham komputer o'yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondashuv va e'tibor kerak bo'ladi. Komputarli o'yin dasturlari shunday yaratilgan bo'lishi kerakki, unda bajariladigan har bir harakat o'quvchilar tomonidan to'g'ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. O'yin dasturidagi har bir harakatni o'quvchi tushuna olish, uni qanday bajarish kerakligini o'ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining axborot texnologiyalari bo'yicha boshlang'ich savodxonligini ham oshirish mumkin, ya'ni komputerning umumiy tuzilishi, asosiy qurilmalari to'g'risida umumiy tushunchalarni, klaviaturadan foydalana olish malakalarini hosil qilish mumkin. Bu bolalarning komputer savodxonligi va ko'nikmalarini shakllanishida asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida komputarli o'yin dasturlaridan foydalanish o'quvchilarda bir qancha pedagogik-psixologik funksiyalarni amalga oshiradi va shakllantiradi:

- *mustaqil harakat qilish imkonini beradi;*
- *obrazli tasavvurlash va fikrlash rivojlanadi;*
- *ranglarni ajrata olish imkoniyatini yaratadi;*
- *bilim olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;*
- *o'z qobiliyati va iqtidorini namoyish qilish imkonini beradi;*
- *muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi;*
- *insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishni o'rgatadi;*
- *o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantiradi;*
- *hamkorlik qilish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi;*
- *charchoq va quvvatsizlikni bartaraf etadi;*
- *nutq madaniyati va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi;*
- *harakatchanlik qobiliyati oshadi [2].*

Bugungi kunda respublikamizda maktab ta'lim tizimini komputer, multimediali elektron qo'llanmalar, Internet, elektron ma'lumotlar bazasi va shu kabi yangi axborot texnologiyalari asosida tashkil etish hamda mashg'ulot va boshqarish jarayonida ulardan keng foydalanishga oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Maktab ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar quyidagi talablarga mos kelishi lozim:

➤ *dars jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;*

➤ *axborot texnologiyalari asosida o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olgan holda ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun kerakli imkoniyatlarni yaratish;*

➤ *axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'quvchini har tomonlama rivojlanishini motivatsiyalash va faollashtirish;*

➤ *axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlari mantiqiyligi va emotsionalligini oshirish.*

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim tizimining samaradorligi quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

1. *Tatbiq etilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining sifati;*

2. *Axborot texnologiyalari vositalarining tarkibiy qismi hisoblangan zamonaviy dasturiy vositalari (multimediali elektron qo'llanmalar, internet, elektron ma'lumotlar bazasi, komputer o'yin) ning sifati [3].*

Аxborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish asosida boshlang'ich sinf ta'lim tizimi samaradorligini oshirish uchun elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish, takomillashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish maqsadida komputarli nashrlar, virtual laboratoriya, ijodiy ishlanmalar, virtual sayohatlar va multimediali dasturlar yaratilmoqdaki, ular multimediali va internet o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmanov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari,- T.: "Akademiya", 2007-yil, 154- bet.
2. Abdiyev Sh. Ta'lim sifat samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni. Uslubiy ko'rsatma. - VXTXQTMOI, Samarqand, 2015 -yil.
3. G'ulomov S. Axborot tizimlari va texnologiyalari -T.: "Shark", 2000 -y.
4. Abduganievich, A. S., & Marsilovna, S. R. (2022, February). Features of the professional activity of a computer science teacher in the modern conditions of the organization of the educational process. In Conference Zone (pp. 195-198).
5. Bagbekova, L. (2019). Opportunities of massive open online courses. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
6. Abdukadirov, A., Zakirov, S., Mamarajabov, O., & Sayfulla, A. (2021). Conditions for the development of students' information competence in the aspect of the development of distance learning in the humanities. In International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2021.
7. I.U. Nazarov, & S.A. Alibekov. (2022). О выборе оптимальных вариантов ноутбуков и гаджетов для студента. Conference Zone, 26–28. Retrieved from <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/430>